

## NEMIS TILIDAGI TELIK VA LIMITATIV NEYTRAL FE'LLAR + HABEN BILAN ASPEKTUAL VAZIYATLARNING O'ZBEK TILIDA BERILISHI

R. Xasanov <sup>1</sup>

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada nemis tilidagi telik (chegaralangan) va limitativ neytral fe'llar, shuningdek, haben yordamchi fe'li bilan yasalgan perfekt shakllarining o'zbek tilidagi ekvivalentlari ko'rib chiqilgan. Nemis tilidagi perfekt shakllari o'zbek tilida turli sintetik va analitik o'tgan zamon shakllari orqali ifodalanadi, jumladan, -gan, -gan edi, va -ib di kabi shakllar. Shundan tashqari, maqolada nemis tilidagi aspektuallik (terminativlik, davomiylik, iterativlik) kabi tushunchalarning o'zbek tilida qanday tarzda ifodalanishi ham tahlil qilingan.

*Kalit so'zlar:* telik (chegaralangan), limitativ neytral fe'llar; funksio-nal, qo'makchi fe'llar; aspektual vaziyat, terminativlik, davomiylik, itera-tivlik, protsessuallik, natijaviylik.

doi: <https://doi.org/10.2024/ysh6ng38>

---

Ma'lumki, nemis tilida **haben** bilan perfekt shaklida chegaralangan, chegaralanmagan va limitativ neytral fe'llar ishtirok etishi mumkin. Telik (chegaralangan) va limitativ neytral fe'llar lingvistikada fe'lning harakat yoki holatning chegaralanishi, ya'ni aniq bir nuqtaga yetgan yoki natijaga erishgan holatlarini ifodalash uchun ishlatiladi.

Telik fe'llar harakatning aniq boshlanishi va oxiri, ya'ni chegaralangan davomi bo'lgan holatlarni bildirib, natijaga yo'naltirilgan harakatni ifodalaydi. Bunday fe'llar natijada bir maqsadga yoki holatning o'zgarishiga erishadi. Ularning asosiy xususiyati shuki, harakatning oxiri aniq chegaralangan bo'ladi. Masalan: *verlieben* (sevgi qolmoq) — harakat natijasi sevgi holatiga yetkazadi; *finden* (topmoq) — izlash harakati o'z natijasiga yetadi; *erledigen* (yakunlamoq) — harakat tugallanadi.

Telik fe'llar harakatning muayyan natijasini ko'rsatib, uning chegaralangan davomiyligini bildirib, ko'pincha "yaxlit natija" sifatida qabul qilinadi.

Limitativ neytral fe'llar harakatning boshlanishi yoki oxiri emas, balki uning davomiylik darajasini yoki chegaralangan muddatni ifodalaydi. Bu fe'llar harakat davomida ma'lum bir cheklovlarni nazarda tutadi, biroq ular har doim aniq bir natijaga yoki chegaraga yetishishga qaratilmagan bo'lishi mumkin. Masalan: *schreiben* (yozmoq) — yozish jarayonida ma'lum bir harakat amalga oshiriladi, lekin harakatning aniq tugashi shart emas; *essen* (ovqatlanmoq) — ovqatlanish jarayoni bir muddat davom etishi mumkin, lekin natijaga erishish muhim emas.

---

<sup>1</sup> Xasanov Ramish Samatovich, Samarqand davlat chet tillar instituti tanyanch doktotanti

Demak, telik fe'llar harakatning tugashini va natijaga erishishni ifodalaydi, limitativ fe'llar esa harakatning davomiyligini va ma'lum muddat ichida sodir bo'lishini ko'rsatadi, lekin natijasi aniq emas.

Chegaralangan fe'llarning semantik belgilari:

- (a) Holatning o'zgarishi (masalan: *verlieben* – sevib qolmoq).
- (b) Natija olib keluvchi harakatlar (masalan: *finden* – topmoq).
- (v) Maqsadli harakat oxirgi nuqtagacha (masalan: *hinaufbringen* – chiqarmoq).
- (g) Harakatning boshlanishi (*anfangen* – boshlamoq).
- (d) Harakatni to'xtatish (*erledigen* – yakunlamoq).
- (e) Egalik qilish (*nehmen* – olmoq).
- (j) Yo'qotish yoki voz kechish (*verlieren* – yo'qotmoq).
- (z) Harakatni to'xtatish (*verhindern* – to'xtatmoq).

Nemis tilida chegaralangan fe'llar bilan perfekt shakllari to'liq bajarilgan harakatni ifodalaydi. Limitativ neytral fe'llar ham perfekt shakllarida chegaralangan ma'noda keladi.

Nemis tilida haben bilan yasalgan perfekt shakllari o'zbek tilida o'tgan zamon shakllari orqali, ya'ni -di va -gan sintetik shakllari, shuningdek, -gan + edi, -ib + di kabi qushma shakllar orqali ifodalanadi.

Bizning materialimizda uchragan vositalarni namoyon etamiz.

1. -gan: Bu shakl o'zbek tilida harakatning natijasini ifodalash uchun qo'llanadi, va natija hozirgi vaqt uchun ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Masalan:

Er hat eine eigene Werkstatt gegründet (Seghers. Die Toten bleiben jung, 45) – U o'z ustaxonasini ochgan (Zegers. Barhayot oliklar, 51); - Natijali voqeani qayd etish.

2. -gan + edi shakli. Bu shakl o'tmishda sodir bo'lgan harakatning natijasiga ishora qiladi. Masalan: Lieven sagte: „Als kleiner Junge habe ich mal ein Märchenbuch bekommen, das man Ihnen sicher auch geschenkt hat: Grimms Märchen (Seghers. Die Toten bleiben jung, 124) – Keyin Liven shunday dedi: - Bolalik vaqtimda menga bir kitob berishgan edi, balki u sizda ham bordir: „Grimm Ertaklari“ (Zegers. Barhayot oliklar, 128);

3. -ar +edi (-ardi):

Bu shakl o'tgan zamonda ko'p marta sodir bo'lgan yoki odatiy harakatlarni ifodalaydi. Masalan: Die habe ich denn ohne Widerrede genommen und mir den Überschuß wöchentlich aus der Losung geholt, da niemand vermutete, daß die Frau die Kasse bestehlen würde. (Goethe. Leiden des jungen Werther, 17) – Men bo'lsam miq etib og'iz ochmasdim, yetishmovchilik o'mini haftasiga kelgan foydadan to'ldirardim: uy bekasi pul o'g'irlyaydi, deb hech kim o'ylamaydi-ku, axir (Gyote. Yosh Verterning iztiroblari, 45).

4. -di: Ushbu shakl odatda o'tgan zamonda sodir bo'lgan harakatni eng umumiy ko'rinishda ifodalaydi va harakatning nutq vaqtigacha amalga oshganligini ko'rsatadi. Masalan: Jetzt müßten Sie den Unterschied sehen! Ich habe zwei Pfund zugenommen (Remarque. Drei Kameraden, 571). - Hozirgi farqni ko'rganingizda edi. Men bir necha kiloga semirdim. (Remark. Uch Og'ayni, 322). - Nutq vaqtigacha sodir bo'lgan holat o'zgarishining natijasi yoki nutq vaqtigacha mavjud bo'lgan natijali holat.

O'zbek tilida bunday vaziyatlarni ifodalash uchun ko'pincha yordamchi (funktional, ko'makchi) fe'llar va asosiy fe'llarning sifatdosh (ravishdosh)? shakllari qo'llaniladi.

Funksional fe'llar sifatida quyidagilar uchradi: maqsadli harakatni ifodalovchi fe'llar kelmoq (kelish), ketmoq (ketish), yubormoq (yuborish); oldingi harakatning natijasini ifodalovchi fe'l topmoq (topish); egallashni ifodalovchi fe'l olmoq (olish); yo'qotishni ifodalovchi fe'l bermoq (berish); biror narsa yaratish ma'nosini ifodalovchi fe'l qilmoq (qilish); finitiv ma'nosidagi fe'l tashlamoq (tashlash).

Barcha sanab o'tilgan fe'llar aniq chegralangan fe'llar hisoblanadi. Ular o'tgan zamon shakllarida bo'lib, asosiy fe'lning turli xil holatdagi bog'lovchi fe'l shakllari bilan birlashib, qo'shma bo'lgan so'z yoki analitik shakllarni hosil qiladi. Bu shakllar nemis tilidagi terminativ aspektual holatlarni o'zbek tilida ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunday birikmalar analitik xususiyatga ega, chunki ular kamida ikki komponentdan iborat bo'ladi: birinchisi o'z leksik ma'nosini saqlab qoladi, ikkinchi komponent esa abstrakt ma'nosida chiqib, yordamchi fe'l vazifasini bajaradi va birinchi komponentga qo'shimcha xususiyat, ya'ni terminativ xususiyat beradi. Masalan: Olib kelmoq (olib + kelmoq = olib kelish);

Saqlab qolmoq (saqlab + qolmoq = saqlab qolish); O'ylab topmoq (o'ylab + topmoq = o'ylab topish); Topib olmoq (topib + olmoq = topib olish); Boshlab olmoq (boshlab + olmoq = boshlab olish); Berib qo'ymoq (berib + qo'ymoq = yo'qotib qo'yish); Yozib qo'ymoq (yozib + qo'ymoq = yozib qo'yish); Sindirib qo'ymoq (sindirib + qo'ymoq = sindirish); Parchalab tashlamoq (parchalab + tashlamoq = bo'laklarga bo'lib tashlash); Chiqarib yubormoq (chiqarib + yubormoq = chiqarib yuborish).

Ushbu birikmalar o'tgan zamon shakllari (ko'pincha -di qo'shimchasi bilan, kamdan-kam hollarda -gan yoki -gan +edi bilan) terminativlik aspektual holatlari aniq ifodalaydi.

Misollar:

Wozu hast du denn den Jungen auch mitgebracht?“ (Seghers. Die Toten bleiben jung, 134) - Bolani nega olib kelding? (Zegers. Barhayot o'liklar, 138); ... der lose Vogel, der Große, hat mir gestern das Pfännchen zerbrochen, als er sich mit Philippsen um die Scharre des Breis zankte. (Goethe. Leiden des jungen Werther, 7). - To'polonchi katta o'g'lim kecha Filips bilan shovla qirmochini talashib, kosachani sindirib qo'yan edi. (Gyote. Yosh Verterning iztiroblari, 16);

Lenore sagte: „Man hat sie hoffentlich schon erschossen (Seghers. Die Toten bleiben jung, 97) - Lenora: - ularni otib tashlashgan bo'lsa kerak? (Zegers. Barhayot o'liklar, 101).

Nemis tilida terminativlik aspektual holati bir vaqtning o'zida takrorlanish (iterativlik, ko'p martalik) kabi aspektual belgilar bilan birga, ko'pincha davomiylik xususiyati bilan ham birlashishi mumkin. Bunday bilgilarni ifodalashning asosiy vositalari leksik konkretizatorlar hisoblanadi. Biz o'rgangan materialda ham, o'zbek tilida ham, terminativlik va takrorlanish (ko'p martalik, iterativlik) belgilarini birgalikda ifodalagan ekvivalent leksik vositalar uchraydi.

Masalan: Oft (juda ko'p, tinimsiz), wieder und wieder (bir necha marta), dreimal (uch marta), manchmal (bir necha marotaba), hundertmal (yuz, ming martalab). Masalan: Ich habe ihm oft das Leben gerettet (Seghers. Die Toten bleiben jung, 246) - Men uni juda ko'p o'limdan saqlab qolganman (Zegers. Barhayot o'liklar, 242); Ich habe wieder und wieder gesagt, dass ich anfahren muss (Seghers. „Die Toten bleiben jung“ S 315) - Men senga bir necha marta jo'nab ketishim kerak, deganman-ku (Anna Zegers. Barhayot o'liklar, 309)

Demak, perfekt bilan ifodalanuvchi vaziyatlarda terminativlik chegaralangan fe'llar bilan birgalikda terminasiya va davomiylik belgilarining o'zaro bog'liqligi sifatida xarakterlanishi mumkin. Juda kam uchraydigan holatlardan biri shundaki, chegaralangan fe'l perfekt shaklida prosessual harakatni ifoda etadi oladi, ammo bu faqat davomiylik komponenti mavjud bo'lganda va ekstralingvistik omillar hisobga olingan hollarda kuzatiladi.

Neytral fe'llar perfekt shaklida, odatda, o'zlarining cheklangan ma'nolarida faoliyat ko'rsatadi, ammo yuqorida zikr etilgan davomiylik komponentlari mavjud bo'lganda, ular prosessual aspektual holatlarni ifoda etishi mumkin. Taqqoslang: Ich habe bisher die Haushaltung geöhrt, so ordentlich und sparsam als möglich; allein du wirst mir verzeihen, daß ich dich diese dreißig Jahre her hintergangen habe (Goethe. Leiden des jungen Werther, 17) – Men shu paytgacha iloji boricha tejab - tergab xo'jalik yurgizib keldim. Ammo shu o'ttiz yil davomida seni aldab kelganimni birgina sen kechirasan (Gyote. Yosh Verterning iztiroblari, 44- 45);

O'zbek tilida davomiylik (prosesuallik) konkretizatorining vazifasini birgalikda inkor shakli –ma (masalan, ochmasdim) va o'tmishda ko'p marta sodir bo'lgan yoki odatiy harakatni ifodalovchi ko'rsatkich –(a)rdi (ya'ni, ar edining qisqargan shakli) bajaradi. Masalan, . Die habe ich denn ohne Widerrede genommen und mir den Überschuß wöchentlich aus der Losung geholt, da niemand vermutete, daß die Frau die Kasse bestehlen würde. (Goethe. Leiden des jungen Werther, 17) – Men bo'lsam miq etib og'iz ochmasdim, yetishmovchilik o'mini haftasiga kelgan foydadan to'ldirardim: uy bekasi pul o'g'irlyaydi, deb hech kim o'ylamaydi-ku, axir (Gyote. Yosh Verterning iztiroblari, 45).

Juda kam hollarda perfektdagi cheklangan fe'llar bilan bog'liq gaplarda davomiylik eksplikatori sifatida lange (ancha vaqt) ishlatiladi. Qo'ydagi misolda immer so (bosh gapda) va etwas lange (shartli qo'shimcha gapda) kabi davomiylik konkretizatorlari orqali perfekt shaklida ifodalangan aniq telik fe'l aspektual holatni odatiylik belgisiga bog'liq prosessual hodisa sifatida talqin qiladi: Ich lachte. “Das ist immer so, wenn man lange entbehrt hat”. (Remarque. Drei Kameraden, 569). – Men kulib yubordim. – Uzoq vaqt qilmagan ishing har doim shunaqa tuyuladi (Remark. Uch Og'ayni, 321).

Shunday qilib, nemis tilidagi perfekt gaplarning tahlili va ularning o'zbek tiliga tarjimai quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Mazmun jihatidan, nemis tilida aniqlangan perfekt aspektual holatlar, ya'ni terminativlik holati uning ikki kichik turi bilan — terminasiya va ko'p martalik harakatning birligi hamda terminativlik ma'nosining davomiylik (prosesuallik) belgisi bilan birlashuvi, o'zbek tilida ham kuzatiladi.

Ifodalanish jihatidan, har ikki tilda o'tgan zamon shakllari va kontekstual vositalar ishtirok etadi. Ayrim farq shundaki, agar nemis tilida ushbu turlarning ifodasi yordamchi fe'l haben bilan bo'lsa, o'zbek tilida ularni ifodalash uchun bir nechta sintetik va analitik o'tgan zamon shakllari, shuningdek, bir qator funksional (ko'makchi) fe'llarni o'z ichiga olgan analitik birikmalardan foydalaniladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

[1]. Коклянова А.А. Категория времени в современном узбекском языке.- М.: Академия наук СССР, 1963 – 123 с.

- [2]. Ризаев Б.Х. Аспектная семантика перфектных и плюсквамперфектных форм немецкого глагола. – Самарканд, 2003. – 89 с.
- [3]. Ризаев Б.Х. Функционально-семантическое поле лимитативности в современном немецком языке. - Самарканд: СамГИИЯ. – 2013 – 161 с.
- [4]. Юлдашев А.А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. - М.: Наука, 1965.
- [5]. Goethe J. W. *Leiden des jungen Werther*. Fundacja Nowoczesna Polska. 1984.
- [6]. Gyote I. V. *Yosh Verterning iztiroblari*. Yoshlar nashriyot. 2018
- [7]. Hesse H. *Der Steppenwolf*. Ulm. „Suhrkamp taschenbuch 175“ -1974
- [8]. Hesse H. „Cho'l bo'risi“ Toshkent „O'zbekiston“ – 2015
- [9]. Remarque E. M. *Drei Kameraden*. Witsch, Köln: by Verlag Kiepenheuer, 1964, 1991.
- [10]. Remark E. M. *Uch og'ayni*. Toshkent: Jahon adabiyoti jurnali, 1998. Ruschadan Nizom Komil tarjimasi.
- [11]. Seghers A. *Die Toten bleiben jung*“. Aufbau-Verlag Berlin und Weimar, 1991.
- [12]. Zegers A. *Barhayot o'liklar*. - Toshkent: O'zbekiston davlat baddiy adabiyot nashriyoti. 1962.